

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMI

JAVHAROV XIDIRBEK*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Jismoniy Madaniyat ta'lim yo'nalishi**2-bosqich 9/23-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z yuritilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning vazifalari va ushbu dasturlardan ko'zlangan ustuvor maqsadlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: konseptual, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", DTS, "Sifat bosqichi", mafkuraviy, totalitar.

Аннотация: В данной статье рассказывается о реформах, реализуемых в Республике Узбекистан по развитию системы образования. Приводятся сведения о концептуальных основах развития системы образования» и задачах «Национальной программы подготовки кадров». » и выделены приоритетные цели этих программ.

Ключевые слова: концептуальный, Закон «Об образовании», «Национальная программа подготовки кадров», ДТС, «Этап качества», идеологический, тоталитарный.

Annotation: This article talks about the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan to develop the education system. It provides information about the conceptual foundations of the development of the education system. The Law on Education" and the tasks of the "National Personnel Training Program" and the priority goals of these programs are highlighted.

Key words: conceptual, Law "On Education", "National Personnel Training Program", DTS, "Quality Stage", ideological, totalitarian.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlangan. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vaziafasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'y-harakatlarning samarasi sifatida 1992-yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni qabul qilingan. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'lim tizimi, uning asosiy

yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z aksini topgan. Biroq, 1997-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiri tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlangan. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'lgan hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilangan. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining rivojlantirishning konseptual asoslari "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunlarda o'z aksini topadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri bila olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi 1997-yilning 29-avgustida qabul qilingan bo'lib, u 5 bo'limdan tashkil topgan. Dasturning 2-bo'limida maqsad va vazifalari bilan birga uni ro'yobga chiqarish bosqichlari ham ko'rsatib berilgan. Dasturning maqsad va vazifalarini ketma-ket 3 bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchi bosqich 1997-2001-yillarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, hadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviymoddiy shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan edi. Bu bosqichda ta'lim qonuni asosida ta'lim tizimi va mazmuni qayta ko'rilgan, umumiy o'rta va oliy ta'lim uchun DTS (Davlat ta'lim standartlari) yaratilgan, ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish boshlangan, o'rta maxsus ta'lim uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy kadrlar bazasi tayyorlangan, ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimi joriy etila boshlangan.

Ikkinchi bosqich 2001-2005-yillarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqlik kiritishlar kiritish nazarda tutilgan edi. Bu bosqich "Sifat bosqichi" deb nomlanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb belgilangan edi:

- majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amamlga oshirish;
- ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish.

Bu bosqichda ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinishi lozimligi bilan belgilangan. Ikkinchi sifat bosqichida belgilangan vazifalar imkoniyat darajasida bajarilib, hayotga tadbiiq etib kelingan.

Uchinchi bosqich 2005- yil va undan keying yillarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, istiqbollariiga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida bir qator "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilingan. 1992-yilda dastlabki "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. 1997-yilda esa ikkinchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Ushbu "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo'lgan: birinchidan, biz yashayotgan muhitda, ya'ni mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy tizimdagi o'zgarish bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo'lgan munosabat o'zgargan, uchinchidan, eski mafkuraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qo'ygan, to'rtinchidan esa ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinishi, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga his-tuyg'ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol hamda chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etgan. Ushbu "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 5 ta bo'lim, 34 moddadan iborat. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida: ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilingan, demak, ta'lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biridir.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi fuqarolalarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqni ta'minlashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor berilib, juda ko'plab tizimli va samarali islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ham bir qator izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan

iboratdir. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov taʼlim-tarbiya tizimi va uning mohiyati haqida oʻzining quyidagi fikrlarini bildirib oʻtgan: “Eng avvalo, bizning taʼlim tizimiga boʻlgan munosabatimizni ham tubdan oʻzgartirish kerak. Taʼlim islohoti bizni demokratik oʻzgarishlar, yangi jamiyatni barpo etish yoʻlidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch boʻlmogʻi zarur. Har birimizga besh barmoqdek, eskicha aytganda, toʻqqiz puldek aʼyon boʻlsinkim, taʼlim-tarbiya tizimini oʻzgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki ularning turmush tarzini ham oʻzgartirish mumkin emas”. Zero, taʼlim islohoti yangi jamiyatni barpo etish yoʻlidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod- Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent-1998.
2. N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov “Umumiy pedagogika”. Toshkent-2012.
3. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva “Pedagogika nazariyasi”. Toshkent-2008.
4. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent-2017.
5. M.X.Toxtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva,
6. S.Madiyorova, A.Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov “Pedagogika” (I qism). Toshkent-2010.